



NAIM KARIMOV VA QODIRIYSHUNOSLIK MASALALARI

Abdilakimov Dilruxjon Rajab o‘g‘li
*O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrası tayanch doktoranti.*
adilruxjon@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada akademik Naim Karimovning Qodiriy ijodi tadqiqiga qaratilgan ilmiy merosi va uning qodiriyshunoslikdagi ahamiyati tahlilga tortilgan. Qodiriyshunoslikdagi yutuq va kamchiliklar tadqiq etilgan.

Kalit so‘z va iboralar: jadid adabiyoti, jadidshunoslik, Qodiriy, Naim Karimov, qodiriyshunoslik, “Uch buyuk siymo”, Habibullo Qodiriy

KIRISH

XX asr boshlarida vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakati yurtimiz tarixida katta voqea bo‘ldi. Ular xalq xayotini tubdan isloh qilish, yangilash maqsadida tinimsiz harakat qildilar. Bu harakat vakillari xalqni uyg‘otish, Abdulla Avloniy tabiri bilan aytganda “qora xalqni oqartirish”⁴¹⁵ yo‘lida eng samarali vosita sifatida adabiyotning ta’sir kuchidan foydalanishni maqsad qildilar. Adabiyotshunoslikda bu harakat vakillari ijodi “jadid adabiyoti” nomi bilan ham ataladi. Jadid adabiyoti namoyondalarining o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida tutgan o‘rnini o‘rganish bugungi globallashuv jarayonida har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada qator jadidshunos olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlari o‘zbek jadidshunosligini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada hanuz yirik tadqiqotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jadid adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganish hali yozuvchi hayotlik davrlaridanoq boshlanib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Shu vaqt oralig‘ida qodiriyshunoslikka oid yuzlab maqola, monografiya va kitoblar e‘lon qilindi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida qodiriyshunoslik yanada rivojlandi va fan tarmog‘i sifatida shakllandi. Oybek va Sotti Husaynning monografiyalari bilan boshlangan qodiriyshunoslik o‘tgan asrning 70-80-yillarida I.Sultonov, M.Qo‘shjonov, I.Mirzayev, H.Qodiriy, A.Aliyev, Sh.Turdimov, F.Nasriddinov, 80-90-yillarda U.Normatov⁴¹⁶, S.Mirvaliyev, N.V.Vladimirovna, M.Sultonova, E.Karimov, M.Xudoyqulov, Q.Azimov singari olimlarning tadqiqotlari tufayli

⁴¹⁵ Avloniy A. Tanlangan asarlar // 2 jild – T.: “Ma’naviyat”, 2009. – B. 308

⁴¹⁶ Qarang: “Qodiriy bog‘i” va “Qodiriy mo‘jizasi” kitoblariga Naim Karimov bir qancha o‘rinlarda murojat qilib ketadi.

o‘zbek adabiyotshunosligining yetakchi sohalaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida bu fan tarmog‘i taraqqiyotiga B.Qosimov, B.Nazarov, I.G‘ofurov, B.Karim, U.Hamdani, U.Jo‘raqulov, Xondamir va Sherkon Qodiriylar muhim hissa qo‘shdilar.

NATIJALAR

Jadid adabiyotining yirik tadqiqotchilaridan biri akademik Naim Karimovdir. Olimning uzoq yillik ilmiy faoliyatida jadidshunoslik katta o‘rin tutadi. Behbudiy, Hamza, A.Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, Tavallo kabi jadid ijodkorlari faoliyatiga oid kitob va maqolalari o‘zbek jadidshunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Jadid adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Qodiriy ijodi Naim Karimovning o‘tkir nigohidan chetda qolmadi. Olim Qodiriy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan 20 ga yaqin maqola e‘lon qilgan⁴¹⁷, “XX asr adabiyoti manzaralari” va “Uch buyuk siymo” kitoblarida ham Qodiriy hayoti va ijodiga katta o‘rin ajratilgan. Naim Karimov tadqiqotlarining xususiyatli jihatlaridan biri shundaki, olim o‘zi tadqiq etayotgan ijodkorni biografik usulda o‘rganadi. Olim ijodkorlarning ijodini hayot yo‘li bilan bog‘lab tadqiq etadi. Bu usulning yutuqli tomoni shundaki, munaqqid ijodkorning hayotida sodir bo‘lgan turli voqealarning ijodiga ta‘siri masalasini ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Ammo biografik usulning o‘ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Bu usulda aniq ma‘lumotlar, dalillar, faktlar ishlaydi, nazariy qarashlar kamlik qiladi. Naim Karimovning ilmiy usuli ham shu qiyin yo‘ldan borishi, arxiv ma‘lumotlarga asoslanishi bilan ham qimmatli hisoblanadi. Olimning Qodiriy ijodiga bag‘ishlangan maqolalarining nomidanoq bu maqolalar biografik usulga asoslangani sezilib turibdi. Qodiriy hayotiga oid ma‘lumotlar arxiv materiallar va unig zamondoshlari, oila a‘zolari xotirasi asosida tiklandi. Bu borada eng yirik ishni uning o‘g‘li Habubullo Qodiriy amalga oshirgan⁴¹⁸. Naim Karimov ham Qodiriy hayotiga oid ma‘lumotlarni yoritishda ko‘p o‘rinlarda Habibullo Qodiriy xotiralariga suyangani. Buni, ayniqsa, “Uch buyuk siymo” kitobi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. “Uch buyuk siymo” kitobi

⁴¹⁷Otabekning prototipi bormi //Sanduvoch, 2009-yil №18 B.4-6; O‘lmas siymo (A.Qodiriy) // She‘rlar, hikoya va ocherklar. Hajviylar Toshkent. 2011. B.3-6; Ijodiy yuksalish orzusi yoki Jo‘lqinboy so‘zlariga sharh // O‘zbekiston matbuoti. 2011-yil № 3 B.68-71; Qodiriy qayerda o‘qigan// Kitob dunyosi, 2013-yil 10-iyul; Abdulla Qodiriy qomusi //O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2013-yil 24-may; Abdulla Qodiriy va Toshkent adabiy muhiti// O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2013-yil 25-oktyabr, 1-noyabr; Milliy romanchiligimizning asoschisi // Kitob dunyosi 2014-yil 13-avgust; A.Qodiriy ijodining milliy g‘oya targ‘ibotida va barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati: ilmiy maqolalar to‘plami - Toshkent, 2014, B.3-13; Abdulla Qodiriy va Toshkent adabiy muhiti // A.Qodiriy abadiyati – Toshkent, 2014, B. 150-162; Abdulla Qodiriy va Holid Said // Kitob dunyosi 9-aprel. Poetic tafakkur va talqin muammolari . Toshkent. 2014, B.35-45; Abdulla Qodiriy – tarjimon. //Jahon adabiyoti. 2014-yil mart B. 89-94; Abdulla Qodiriy – Taqdir o‘yinlari // A.Qodiriy abadiyati – Toshkent, 2014, B.150-162; A.Qodiriyning Qozon safari // Sharq yulduzi. – 2014-yil №4 B. 114-117 Qodiriy 120 yilligiga; Qodiriyshunoslik: yutuqlar, muammolar, mulohazalar// Kitob dunyosi 2016-yil 9 noyabr va 23-noyabr; Jinlar bazmi” romani haqida // Jahon adabiyoti, 2015-yil 4-son B.92-93; Abdulla Qodiriy va Oybek “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2015-yil 4-son B. 3-8; A.Qodiriy va Amr umarxonning kanizi Vodiynoma, 2017-yil 2-son 82-90-bet; A. Qodiriyning adabiy estetik qarashlari “O‘zbek tili va adabiyoti” 2017-yil 3-son B. 3-10

⁴¹⁸Otam haqida: Xotiralar-to‘ldirilgan 2-nashri – T.: Adabiyot va san‘at, 1983, B-224; “Otamdan xotira” – T.: Yangi asr avlodi, 2005. - B. 424; “So‘nmagan Chiroq”// Habibullo Qodiriy, to‘plab nashrga tayyorlovchi Xondamir Qodiriy – Toshkent: Movaraunnahr, 2014.- B. 286

uch buyuk ijodkor: Qodiriy, Cho‘lpon va Oybekka bag‘ishlangan uch bobdan iborat. Birinchi bobi Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu kitobga Naim Karimovning Qodiriy ijodiga bag‘ishlangan ba’zi maqolalari bo‘lim sifatida kiritib ketilgan.

Naim Karimov o‘z uslubiga sodiq qolgan holda Qodiriy ijodini ham biografik metodda tekshiradi. “Qodiriy qachon tug‘ilgan”, “Abdulla Qodiriy va Toshkent adabiy muhiti”, “Toshkent adabiy muhitiga yangi g‘oyalarning kirib kelishi va Abdulla Qodiriy ijodining boshlanishi”, “Abdulla Qodiriy qayerda o‘qigan”, “Adib dorilfununlari” kabi bo‘limlarda Qodiriyning oilasi, o‘qigan maktab va madrasasi, u mansub adabiy muhit haqida batafsil to‘xtalib o‘tadi. Ayniqsa uning Qodiriy tug‘ilgan sanasi haqidagi chalkashliklarga oydinlik kiritish borasida bildirgan fikrlari ishonarli. Ammo aniq xujjat bo‘lmaganligidan munaqqid yakuniy xulosa bildirishni istamaydi. Naim Karimov tadqiq qilinayotgan yozuvchi yo shoir haqidagi eng kichik detalgacha batafsil ma’lumot berishga harakat qiladi va har bir ishida bunga erishadi.

MUHOKAMA

Qodiriy haqida so‘z ketganda “O‘tkan kunlar” haqida gapirmaslikning imkoni yo‘q. “Uch buyuk siymo”ning “Milliy romanimiz asoschisi”, “O‘tkan kunlar”ning yaratilishi”, “O‘tkan kunlar”ning badiiy benazirligi” kabi bo‘limlarda romanning yaratilishi va uning badiiyligi haqida chuqur tahlillar berilgan. Xususan, Qodiriyga nisbatan “O‘zbek romanchiligining asoschisi” sifatidagi ta’rifning kelib chiqishi haqida adabiyotshunos olim Ergash Rustamovning maqolasidan⁴¹⁹ Bertelsning so‘zlaridan ko‘chirma keltiradi: “Mening tushunishimcha - degan ekan u, - jahon adabiyotida uslub jihatidan farq qiadiga beshta romanchilik maktabi sayqallanib, ko‘zga tashlanib turadi. Ular ingliz, fransuz, nemis, rus, hind romanchilik maktablaridir. Endilikda oltinchi romanchilik maktabi yaratildi. Bu, o‘zbek romanchilik maktabidir. Bu maktabni yaratgan Abdulla Qodiriydir”⁴²⁰. Ammo Naim Karimov keltirilgan ko‘chirma Bertelsning birorta maqolasida uchramasligini, bu ta’rifga Qodiriyning muhtoj emasligini bildiradi. Haqiqatdan ham jahon adabiyotshunosligida “o‘zbek romanchilik maktabi” hozircha yo‘q. Munaqqid shunga qaramay Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining emas, aynan o‘zbek romanchilik maktabi asoschisi sifatida ta’riflaydi. Fikrining isboti uchun Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarining 9 ta o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘tadi. Bu o‘ziga xos xususiyatlar Qodiriydan keyin yaratilgan barcha asarlarda kuzatilmasada, Oybek singari yozuvchilar ijodida ma’lum darajada saqlanib qolganini ta’kidlab o‘tish kerak.

Munaqqid Qodiriy romanlarini chuqur tahlil qilganini ko‘rish mumkin. Ayniqsa asar qahramonlarining prototipi masalasida olimning qarashlari e’tiborli. Qodiriy shaxsiyati haqida uning zamondoshlari, oila a’zolari va o‘zi yozganlaridan bugun ham tasavvurga egamiz. Naim Karimov Qodiriyning shaxsiyati haqida gapirib, uning Otabek obrazining prototipi ekanligini

⁴¹⁹ Qarang: “Sharq yulduzi”, 1989,9-son. – B. 180-181

⁴²⁰ Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2019. – Б. 316

ta’kidlaydi. Bunga dalil sifati “O‘tkan kunlar” asosida kino ishlanashmoqchi bo‘lishsa, Otabek rolini o‘zi ijro etsagina bunga ruxsat berishi haqidagi xotiralarini keltiradi.

“Abdulla Qodiriy va teatr” bo‘limida Qodiriyning sahna asarlari haqida batavsil ma’lumot berishga harakat qiladi. Munaqqid Qodiriyning teatr sohasiga oid faoliyatini quyidagi uch guruhga bo‘lib o‘rganadi:

- 1) adibning dramaturgik faoliyati;
- 2) sahna asarlari tarjimoni sifatidagi faoliyati;
- 3) 10-20-yillardagi teatr jarayoniga munosabati⁴²¹.

Naim Karimov o‘z tadqiqotlarining ana shu kabi yonalishini aniq chizib oladi. Ammo Qodiriyshunoslarga yaxshi ma’lumki uning tarjimonlik mahorati qanchalik yuksak bo‘lmasin, unchalik katta emas. Teatr sohasiga oid Gogolning “Uylanish” komediyasini yuksak mahurat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgani haqida matbuotdagi chiqishlar orqali va 60-yillarga kelib Izzat Sulton topgan pyesaning birinchi pardasining rejissiyorlik nusxasi orqali xabardormiz. Bundan tashqari san’atshunos olim S.Ahmedovning tadqiqotlariga ko‘ra Tatar adabiyotidan “Erim qaytdi” bir pardali komediyasini ham tarjima qilganligini va bu pyesa 20-yillarda o‘zbek sahnalarida 3 marta namoyish qilingan. Shunga qaramay Naim Karimov ham Qodiriyning teatr tarjimonlik faoliyatini alohida tadqiq qilishni afzal ko‘radi. Bu munaqqid ilmiy uslubining yana bir xususiyatli tomonlaridan biri bo‘lib, olimning o‘tkir nigohidan hech narsa chetda qolmaydi. Zahmatkash olim har bir tadqiq etiloyotgan ishning bo‘y basti bilan to‘la qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham Qodiriy haqida yozilgan o‘nlab maqolalardan so‘ng u haqida “Uch buk siymo” kitobida yanada batafsil izlanishlar olib borishni lozim topadi. Ayniqsa Qodiriyning dramatik faoliyatiga yuksak baho beradi. Muallifning obraz yaratishdagi o‘ziga xosligi dramalarida ham munaqqid e’tiboridan chetda qolmaydi: “Qodiriyning novatorligi shundaki, u XX asr boshlarida tug‘ila va shakllana boshlagan an’anadan vos kechib, ellikboshi obrazini ijobiy qahramaon sifatida tasvirladi va o‘zbek adabiyotiga, o‘zbek dramaturgiyasiga yangi ijobiy qahramonni olib kirdi”⁴²². “Baxtsiz kuyov” bilan tanish bo‘lgan kishiga ellikboshining asarda ijobiy qahramon sifatida gavlantirilgani yaxshi ma’lum. Ammo asr boshida va undan avval ham bu lavozim vakillari haqida salbiy qarash mavjud edi. Qodiriy esa shu kabi qarashlarga ergashmay, har qaysi sohada ham yaxshi kishilar bo‘lishiga o‘quvchilarni ishontirish, xalq bilan ellikboshilarni yaqinlashtirish orqali ijtimoiy hayotning ozgina bo‘lsada yaxshilanishiga erishishni maqsad qilgan bo‘lsa ajab emas. Asarda jadid ma’rifatparvarlarining xalqning eski an’analarga amal qilaman deb ortiqcha sarf-xarajat bilan to‘y qilishga qarshi qaratilgan g‘oyalari ham o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi jamiyat illatlarini fosh etuvchi sahna asarlaridan yana biri bir pardalik “Hech kim bilmasin” nomli komediyasidir. Bu asar haqida Shapoq Mahdum imzosi bilan “Qizil bayroq” gazetasining 1921-yilda e’lon

⁴²¹ Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2019. – Б. 316

⁴²² Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2019. – Б. 316

qilingan maqolasidan⁴²³ bu sahna asari Cho‘lponning “Yorqinoy” pyesasi bilan bir kunda sahna qo‘yilganini bilib olamiz. Munaqqid bu sahna asarining o‘tkir fosh qiluvchi harakterini yuqori baholaydi.

XULOSA

Naim Karimov o‘zining uzoq yillik ilmiy faoliyati davomida jadid adabiyoti namoyondalarining ilmiy merosini tiklash, o‘rganish va sof adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan turib tahlil qilishga katta hissa qo‘shdi. Olimning Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan qator maqolalari, “Uch buyuk siymo”, “XX asr adabiyoti manzaralari” kitoblari orqali qodiriyshunoslikning dolzarb masalalari haqida o‘zining ilmiy qarashlarini asosli tarzda ifodalay olganini ko‘rishimiz mumkin. Naim Karimov Qodir ijodini biografik metod asosida chuqur tahlil qilgan olimlardan biri bo‘lib, munaqqidning Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy merosi qodiriyshunoslikning bundan keyingi rivoji uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar // 2 jild – T.: “Ma’naviyat”, 2009. – B. 308
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari – T. “O‘zbekiston”, 2008. – B. 535
3. Qodiriy H. Otam haqida: Xotiralar-to‘ldirilgan 2-nashri – T.: Adabiyot va san’at, 1983, B-224
4. Qodiriy H. So‘nmagan Chiroq // to‘plab nashrga tayyorlovchi Xondamir Qodiriy – Toshkent: Movaraunnahr, 2014.- B. 286
5. Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2019. – Б. 316
6. Каримов Н. Адабиёт ва тарихий жараён. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2012. – Б. 444

⁴²³ Shapoq Mahdum, “Yorqinoy” va “Hech kim bilmasun”/ “Qizil bayroq” gazetasi, 1921-yil 17-sentyabr